

XITOY TILINING AYRIM MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7355468>

KENJAYEV Izzatbek

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

This article is named “The morphological nature of the Chinese language”.

These topics are considered in this article: Grammatical nature of Chinese words (the main classification), Generic categorical values (semantic classification), The number of syllabic structure (quantitative classification), members of sentence in Chinese language.

Morfologiya (形太学 xìngtāixué, 词法 cífǎ) – so‘z haqida gramma tik ta’limot, xitoy tili so‘zlariga xos bo‘lgan gramma tik kategoriyalarning morfologik xususiyatlari tizimini o‘rganuvchi gramma tikanining bo‘limi. Morfologik xususiyatlarga so‘zning ichki tuzilishi (tarkibi)ning xususiyatlari, shuningdek, so‘z yasash va shakllantirish usullari kiritiladi. Gramma tik kategoriyalarga umumiy gramma tik kategoriylar (so‘z turkumlari) va ularga xos ba’zi bir kategoriylar taalluqlidir.

Xitoy tilidagi so‘zning asosiy turini ikki bo‘g‘inli so‘zlar, «binomlar» tashkil qiladi. So‘z - ma’no birliklari (morfemalar)ning umumiyligi hisoblanib, quyidagi belgilari bilan ta’riflanadi:

«A) Bu yerda biz ma’noni ifodalovchi birliklar, alohida tushunchani ifodala oladigan majmua (kompleks)larni uchratamiz;

B) Bu majmua (kompleks)lar umumiy fonetik shaklga ega (masalan, umumiy urg‘u);

V) Mazkur majmua (kompleks)lar yagona (barcha kompleks uchun umumiy) sintaktik vazifada – gapning bitta bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin;

G) Ushbu majmua (komplekslar) sintaktik va morfologik jihatdan qismlar bo‘yicha emas, balki butunlay shakllanadi, natijada shakllarning aniq bir yagonaligi (birligi)ni yaratadi».

Xitoy tilida so‘z uning eng muhim birligi hisoblanib, leksik tizimida markaziy o‘rinni egallaydi va bo‘g‘in va morfema bilan murakkab munosabatda bo‘ladi.

Xitoy tilidagi so‘zlar rus tili kabi bo‘g‘inlarga bo‘linadi. Biroq bu tillardagi bo‘g‘inlar bajarayotgan roli bir xil emas. Rus tilidagi hamma bo‘g‘in ham ma’noga ega bo‘lavermaydi, xitoy tilida esa har bir alohida olingan bo‘g‘in (etimologik bo‘g‘inlarga ajralmaydigan so‘zlar bundan mustasno) ma’noga egadir. Shunday qilib, xitoy tilidagi bo‘g‘in nafaqat tovush birligi, balki ma’noga ega bo‘lgan birlikdir. Demak, xitoy tilida bo‘g‘inlarga bo‘lish morfologik bo‘linishga mos keladi, shuning uchun morfemani ba’zida bo‘g‘in-morfema deb atashadi.

Xitoy tili faktlarini tahlil qilib, aniq bir ma’noga ega, lekin sintaktik mustaqil bo‘lmagan so‘zning eng kichik (minimal) qismi (词素 císu) morfemasini ajratish maqsadga muvofiq.

Nutqda mustaqil vazifaga ega bo‘lmagan ba’zi morfemalar aniq bir sintantik holat (sharoit)larda tilning mustaqil birligi sifatida ishlataladi va shuning bilan bir bo‘g‘inli so‘z mavqeい (statusi)ni oladi.

提 tí morfemasi – *mavzu* mustaqil qo‘llanilmaydi, shunga qaramasdan 这道提不难 zhè dào tí bù nán。*Bu mavzu qiyin emas* iborasi to‘g‘ri hisoblanadi. Bu so‘zlar ba’zilarda 临时次 línhící – vaqtinchalik so‘zlar deb nomlanadi.

Ba’zi morfemalar (asosan *venyan* tilidagi bir bo‘g‘inli so‘zlar) mustaqil sintaktik qo‘llanilish qobiliyatini yo‘qotgan bo‘lsa ham, frazeologik birliklar tarkibida alohida so‘zlar sifatida bemalol qo‘llanilishi mumkin.

Xitoy tilida morfemalarning ikki turi mavjud: ma’noga ega (ma’noviy) morfemalar va yordamchi morfemalar. Yordamchi morfemalar o‘z navbatida so‘z yasovchi va shakl yasovchilarga ajratilishi mumkin.

**Xitoycha so‘zning grammatik tabiatı
(asosiy tavsiflar)**

Xitoycha so‘zning grammatik tabiatı unga xos bo‘lgan grammatik xususiyatlar yig‘indisida namoyon bo‘ladi.

Xitoycha so‘zning xilma-xil grammatik xususiyatlari umumlashtirilgan kategorial ma’no (semantik tavsif), bo‘g‘in-miqdorli tarkib (kvantativ tavsif), so‘z tarkibi va so‘z yasovchi model (tarkibiy tavsif), so‘z o‘zgartiruvchi shakllar (morfologik tavsif)lar kabi tarkibiy-semantik xususiyat (belgi)lar orqali vujudga keladi va belgilanadi.

So‘zlarning alohida sinflari turli grammatik xususiyatlar va sifatlar bilan tavsiflanadi. Bitta sinf doirasida so‘zlar odatda bir xil grammatik xususiyatlar va belgilarga ega bo‘ladi.

**Umumlashtirilgan-kategorial ma’no
(semantik tavsif)**

Xitoy tilida so‘zning ashyoviy (predmet-mantiqiy) ma’nosi birinchi darajali rolni o‘ynaydi. So‘z hamisha leksik birlikning formal- grammatik belgilaridan ustun bo‘ladi. Aynan shuning uchun xitoy tili tizimida so‘zlar sinflari umumlashtirilgan-kategorial ma’nolar (predmet, uning sifati – doimiy belgi, uning jarayoni – o‘zgaruvchi belgi) asosida ajratiladi. Bu sinflar (so‘z turkumlar)ning mazmuni ikki ma’no: ma’lum bir so‘zga xos ashyoviy (leksik) va so‘z turkumiga xos umumlashtirilgan-kategorial ma’nolarning birlashtirilishida ifoda topadi.

Umumlashtirilgan-kategorial (umumlashtirilgan-grammatik) ma’no aniq leksik birligining funksional-sintaktik (sintaktik vazifasi) imkoniyatini, gapdagi uning o‘rnini aniqlab beradi. Albatta, so‘z bitta yoki bir nechta so‘z turkumiga taalluqliligi bilan chegaralangan bo‘lib, ma’lum me’yorlar doirasida sintaktik qo‘llanilishi mumkin.

**Bo‘g‘in-miqdorli tarkib
(kvantitativ tavsif)**

Bo‘g‘in-miqdorli tarkib xitoycha so‘zning grammatik tavsifida muhim belgidir. Qadimgi xitoy tilida so‘zlarning aksariyati bir bo‘g‘inli edi.

Biroq xitoy tilining ko‘p asrlik tarixi va rivojlanishi undagi tubdan o‘zgarishlarni taqozo etdi.

Hozirda xitoy tilida ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar bir bo‘g‘inli so‘zlardan ko‘proq. Xitoy tadqiqotchilarining hisoblariga ko‘ra, bir bo‘g‘inli so‘zlar 24,6%, ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar 75,4% tashkil qiladi.

Bir bo‘g‘inli so‘zlar (单音词 dānyīncí) – boshlang‘ich (tub) leksik birliklardir. Gohida ular sodda (o‘zak) so‘zlar deb ataladi.

Bir bo‘g‘inli so‘z boshlang‘ich, asos qilib olingan leksik birlik bo‘lib, o‘z tarkibida bitta morfema bilan chegaralanadi, affikslar va boshqa qandaydir so‘z yasovchi unsurlardan xoli bo‘ladi. Shunday qilib, u tarkibsiz, yasama bo‘lmagan so‘zdir.

Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar (多音词 duōyīncí) – ikkilamchi (tub bo‘lmagan) leksik birliklardir. Ko‘p bo‘g‘inli so‘z ikkilamchi leksik birlik bo‘lib, o‘z tarkibida kamida ikkita morfemaga ega, ular dan bittasi affiks yoki boshqa qandaydir so‘z yasovchi unsur bo‘lishi mumkin. Demak, bu so‘z

yasama bo‘lib hisoblanadi. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar barcha murakkab so‘zlarning 85 % ni tashkil qiladi.

Bo‘g‘in-miqdorli tarkib so‘zning grammatik xususiyatlariga ancha ta’sir qiladi. Bir bo‘g‘inli so‘z eski me’yordagi so‘zga xos kvantitativ tavsifli leksik birligi bo‘lib, tor doirada qo‘llaniladi (to‘liqsiz sintaktik avtonomlik /muxtoriyat/); ikki bo‘g‘inli so‘z yangi me’yordagi so‘zga xos kvantitativ tavsifli leksik birligi bo‘lib, sintaktik jihatdan nisbatan keng qo‘llanilish imkoniyatlariga ega (to‘liq sintaktik avtonomlik /muxtoriyat/).

Bir bo‘g‘inli va ikki bo‘g‘inli so‘zlarga xos bo‘lgan grammatik xususiyatlardagi farq xitoy tilida bitta so‘zning ikkita sinxron bo‘lgan tarkibiy variantini vujudga keltiradi. Leksik birligi nutqda qo‘llanilishiga qarab (ham sintaktik, ham stilistik holatlarda), yoki ikki bo‘g‘inli, yoki bir bo‘g‘inli so‘z shaklida kelishi mumkin.

Xitoy tilida mustaqil so‘z turkumlari

Xitoy lingvistik adabiyotida ko‘pincha tilning lug‘aviy tarkibi shici to‘liq (butun) so‘zlarga va 虚词 xuci bo‘sh (ma’nosiz) so‘zlarga bo‘linadi. Shuning bilan birga 实义次 shiyici bosh so‘zlar va 副助词 fuzhuci yordamchi so‘zlarga bo‘linish mavjud.

Bosh so‘zlar va yordamchi so‘zlar keskin bir biridan farq qiladi. Bosh so‘zlar predmetlarni va belgilarni ifodalaydi, yordamchi so‘zlar esa bosh so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni bildiradi. Aynan shunda ularning semantik farqi ko‘rinib turadi. Gap tarkibidagi bosh so‘zlar u yoki bu gap bulaklarining vazifasini bajarib keladi, yordamchi so‘zlar esa bunday sintaktik vazifalarga ega bo‘lmaydi. Mana shunda ularning grammatik farqi ifodalanadi.

So‘z turkumlari (词类 cilei) – bu bosh so‘zlarning sinflari (turlari)dir (shici). Bosh so‘zlar to‘liq narsani ifodalash ma’nosiga egadir. Ular predmetlarni, ularning belgilarini (doimiy yoki o‘zgaruvchan) ifodalaydi.

Xitoy tilidagi so‘z turkumlari leksik-grammatik belgilar va xususiyatlar, shuningdek, umumlashtiruvchi-kategorial ma’nosи, sintaktik valentligi va gap tarkibidagi vazifalari hamda so‘z yasalishi va so‘z o‘zgarishi bo‘yicha farqlanadi.

So‘zlarning so‘z turkumlari bo‘yicha taqsimlanishi tilning grammatik tizimi bilan bog‘liqidir. Xitoy so‘zining grammatik tabiatni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, xitoy tilining lug‘aviy tarkibini leksik-grammatik sinflarga bo‘lish joiz. Mazkur tasniflashda uchta belgi: ma’noviy (mazmun), sintaktik va morfologik jihatlar asos qilib olinadi.

Yuqoridagi so‘z turkumlarini aniqlashdan kelib chiqib, mustaqil so‘z turkumlarining quyidagi sinf (tur)larini taklif qilish mumkin: ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish.

REFERENCES

1. Kondrashevskiy A.F. Posobie po ieroglifike k uchebniku Prakticheskiy kurs kitayskogo yazika (v dvux chastyax). – Moskva: Izdatelstvo «Muravey», 2000.
2. Sofronov M. V. Vvedenie v kitayskiy yazik. – Moskva: Izdatelstvo «Muravey», 1996.
3. Malyavin M.A. Kitayskaya sivilizatsiya. – Moskva: Izdatelstvo «Muravey», 2000.
4. Alimov I. A. va boshq. Sredinnoe gosudarstvo. Vvedenie v tradisionnyu kulturu Kitaya. – Moskva: Izdatelstvo «Muravey», 1998.
5. 新华词典 2001 年
6. 外国人实用汉语语法 2007 年
7. 古汉语常用字字典 2008 年北京
8. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
9. С.А. Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).

10. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с* (р. 361).
11. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
12. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
13. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
14. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
15. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
16. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
17. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
18. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
19. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
20. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
21. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化 · 87, 0
22. С.А. Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. С. 187-188.
23. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ 3,384,2019